



UO'K: 001.89

Barxayotjon ABDULLAYEV,
Toshkent Davlat transport universiteti dotsenti v.b., PhD
E-mail: abdullayev_b@tstu.uz
Enajon NISHANBAYEVA,
O'zbekiston Miliy universiteti dotsenti, PhD
E-mail: enahon235@gmail.com

O'zMU professori, siyosiy fanlar doktori I.Ergashev taqrizi asosida

SIYOSIY TA'LIMOTLAR TARIXI FANINI O'RGANISHNING METODOLOGIK TAMOIYILLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola siyosiy ta'limotlar tarixi fanini o'rganishning asosiy metodologik tamoyillariga bag'ishlangan. Shuningdek, maqola siyosiy ta'limotlar tarixini o'rganishda obyektivlik, xolislik va ilmiylik tamoyillariga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Siyosiy ta'limotlar tarixi, siyosiy qarashlar, siyosiy ta'limot, siyosiy konsepsiya, siyosiy g'oyalar, siyosiy nazariya, siyosiy ta'limotlar tarixining manbalari, metodologik tamoyillar.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИИ ПОЛИТИЧЕСКИХ УЧЕНИЙ

Аннотация

Данная статья посвящена основным методологическим принципам изучения истории политических учений. В статье также подчеркивается необходимость соблюдения принципов объективности, беспристрастности и научности при изучении истории политических учений.

Ключевые слова: История политических учений, политические взгляды, политическое учение, политическая концепция, политические идеи, политическая теория, источники истории политических учений, методологические принципы.

METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF STUDYING THE HISTORY OF POLITICAL DOCTRINES

Annotation

This article is dedicated to the main methodological principles of studying the history of political doctrines. The article also emphasizes the necessity of adhering to the principles of objectivity, impartiality, and scientific rigor when studying the history of political doctrines.

Key words: History of political doctrines, political views, political doctrine, political concept, political ideas, political theory, sources of the history of political doctrines, methodological principles.

Kirish. Ajdodlarimizning siyosiy mesrosini o'rganish, ijtimoiy-siyosiy fikrini bilish siyosiy fanlarning kategoriyalarini o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. O'tmish mutafakkirlarining adolatli jamiyat, davlat qurilishi va boshqaruvi tamoyillari haqidagi ta'limotlari bizni o'ylantiradigan ayrim savollarga javob topishga, ibratli ishlardan saboq olishga ko'maklashadi.

Insonlar doimo o'zlari yashab turgan zamonni anglashda va yorqin kelajakka yo'l topishda o'tgan zamonga, tarixiy tajribada sinab ko'rilgan qoidalar, tamoyillar, qadriyatlariga tayanadilar. O'tmish avlodlarning davlat, jamiyat, huquq, adolatli ijtimoiy tuzum haqidagi fikrlari va ularni qanday yo'nalishda rivojlanganligini bilish, ayniqsa yoshlar uchun, nihoyatda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuni o'rganish jarayonida qo'llaniladigan asosiy tushuncha va kategoriyalar – fikr, qarash, ta'limot, konsepsiya, g'oya, mafkura, nazariya atamalarining mazmun-mohiyatini bilib olish lozim bo'ladi. Buning uchun manbalarga murojaat qilib ularga qanday izoh berilganiga e'tibor qaratamiz.

Fikr - bu arabcha so'z "fkr(un)" shakliga ega bo'lib, "fkr(ladi)" ma'nosini anglatuvchi "fakara" fe'lining 1-bob masdariga teng; arab tilida "fkr(lash jarayonining mahsuli)" ma'nosini, o'zbek tilida esa, bundan tashqari, taklif, maslahat, niyat kabi ma'nolarni ham anglatadi[1].

Siyosiy qarashlar (siyosiy qarashlar/fikrlar, qarash "ma'lum nuqtayi nazardan yondashish") - siyosiy borliqni aks

ettiruvchi va uni baholashni o'z ichiga olgan tasavvurlar, fikrlar [2].

Ta'limot, 1) voqelikning muayyan sohasi haqidagi nazariy qoidalar majmui. 2) Biror olim yoki mutafakkirning asosiy qarashlari sistemasi [3].

Siyosiy ta'limot (doktrina) – 1) jamiyat siyosiy hayoti, siyosat, siyosiy hokimiyat va siyosiy faoliyat haqidagi nazariy qarashlar, qoidalar majmui; 2) har qanday olim yoki mutafakkirning siyosiy sohaga aloqador yaxlit holda olingan qarashlar tizimi [2].

"Ta'limotlar" deganda turli shakllardagi nazariy qarashlarning mohiyati, tegishli bilimlarning tarixan maydonga kelishi va rivojlanishi, siyosiy-huquqiy ko'rinishlarni bilish chuqurlashib borgan nazariy konsepsiyalar, g'oyalar va qoidalar nazarda tutiladi[4].

Konsepsiya (lot.), biror hodisani tushunish, izohlashning muayyam usuli, asosiy nuqtai nazar, tavsiflashning bosh g'oyasi; yetakchi fikr, prinsip [3].

Siyosiy konsepsiya (lot. conceptio - bog'lanish, yig'indi) - yagona, belgilovchi reja, asosiy, yetakchi fikr bilan singib ketgan, muayyan siyosiy muammolarni kun tartibiga qo'yish va hal etish yo'llarini o'z ichiga olgan siyosiy qarashlar, g'oyalar, maqsadlar tizimi [2].

G'oya tushunchasi aksariyat falsafiy tizimlarda ruh (keyinroq bilim) rivojlanishining yuksak taraqqiy qilgan shakliga nisbagan ishlatilgan. Xususan, uni predmetlarning

in'ikosi natijasida shakllangan hissiy obrazi obyektiv voqelikning subyektiv in'ikosi deb talqin qilish mavjud [5].

G'oya (arab. g'oyat so'zining shakli) — lug'aviy ma'noda nihoya, intiho, oxir, poyon hamda orzu, maqsad, niyat, murod, reja ma'nolarini anglatuvchi tushuncha [6].

Siyosiy g'oyalar - inson ongida siyosiy, hukmron voqelikni aks ettiruvchi, unga munosabatini bildiruvchi va uning dunyoqarashi, hayotiy pozitsiyasi hamda xulq-atvorini, shuningdek, siyosiy va umumiy madaniyatini belgilovchi asoslaridan biri bo'lgan tushunchalar, g'oyalar [2].

“Mafkura” (arabcha-fikrlar majmui) tushunchasining ta'rifiga kelsak, ko'pgina ta'riflar orasida uni muayyan bir davrda muayyan bir xalqni, millatni, ijtimoiy guruhning manfaatlaridan kelib chiqadigan maqsadlar sari yetaklovchi estetik, axloqiy, huquqiy diniy, falsafiy, siyosiy g'oyalar tizimi [11].

Nazariya - bu arabcha so'z “nazariyyat” shakliga ega, o'zbek tili “voqea-hodisalar haqidagi umumlashma fikr”, “fikrlashga asoslangan bilim” kabi ma'noni anglatadi [1].

Nazariya - ilmiy bilimning yetuk shakli. Borliqning muayyan jabhasidagi qonuniy va muhim bog'lanishlarni yaqlit holda aks ettiradi. Nazariyada borliq qonunlari, dunyoda mavjud bo'lgan real voqelik to'g'risida aniq, ishonchli va muvofiqlashtirilgan bilimlar ifoda etiladi [5].

Siyosiy nazariya — ilmiy jamoalar yoki alohida siyosatchilar va mutafakkirlar tomonidan ishlab chiqilgan siyosiy bilimlar sohasidagi asosiy g'oyalar tizimi. Siyosiy nazariyaning amaliyot bilan aloqasi, uning amaliyotga mosligi hal qiluvchi ahamiyatga ega [2].

Tadqiqot metodologiyasi. Siyosiy ta'limotlar tarixi fanining tadqiqot obyekti — insoniyat tarixida mavjud bo'lgan siyosiy tasavvurlar, fikrlar, qarashlar, g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlar, ularning ko'rinishlari tashkil etadi.

Siyosiy ta'limotlar tarixi fanining tadqiqot predmetini — siyosiy tasavvurlar, fikrlar, qarashlar, g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalar, ta'limotlarning shakllanishi rivojlanishi hamda o'zgarishi qonuniyatlarini o'rganish tashkil etadi.

Siyosiy ta'limotlar tarixining vazifasi avlodlar avlodga o'tib kelayotgan siyosiy va huquqiy bilim sohasidagi tajribani o'rganish, umumlashtirishdan iboratdir. Siyosiy ta'limotlar keng ma'noda jamiyatdagi sinflar, tabaqa va toifalar, millatlar va ellatlar, shuningdek davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etuvchi g'oyalar, qarashlar va vazifalarni o'z ichiga oladi. Bu qarashlarning o'zagini hokimiyat masalasi, davlat tuzish va boshqarish uslublari masalalari tashkil qiladi. Shunga muvofiq siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixining predmeti ham rivojlanib, o'zgarib bordi.

Jamiyatda nazariy ta'limotlardan tashqari siyosiy va huquqiy voqelikni o'zida aks ettiruvchi turli tasavvurlar, his-tuyg'ular, e'tiqodlar, kayfiyatlar, fikrlar ham mavjud. Bular xalq og'zaki ijodida, badiiy asarlarda, jamoat va siyosiy arboblarning siyosiy va huquqiy hodisalar haqida aytgan fikr va mulohazalarida ifodalangan.

Siyosiy ta'limotlar tarixining manbalari to'g'risida so'z borganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, har bir davrga xos siyosiy ta'limotlar mavjud siyosiy hokimiyatga nisbatan uch xil: - asoslash va qo'llab quvvatlash; - isloh qilish va takomillashtirib borish; - qarshilik va keskin tanqid qilish munosabatlaridan kelib chiqadi.

Tahlil va natijalar. Siyosiy qarashlar, ta'limotlar va nazariyalarni o'rganishga oid metodologik tamoyillar:

siyosiy ta'limotlarni o'z davriga xos siyosiy voqelik bilan bog'liq holda o'rganish;

siyosiy ta'limot muallifining ijtimoiy holati, jamiyatda egallagan o'rni, siyosatga, mavjud hukmron siyosiy hokimiyatga munosabati va pozitsiyasi nuqtai nazaridan o'rganish;

har bir siyosiy ta'limotni insoniyat siyosiy fikri uzluksiz taraqqiyotining bir bo'laki sifatida talqin etgan holda keyingi siyosiy ta'limotlarning rivojlanishiga ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish yaxshi samara beradi.

Siyosiy ta'limotlarni tahlil qilish usuli o'zaro munozarada bo'lgan siyosiy va huquqiy maktablarning biri tomoniga o'tib olmasdan ularga nisbatan obyektiv, xolisona yondashishni talab qiladi. Tarixga sivilizatsion yondashish davlat, jamiyat, huquq va shu kabi ijtimoiy hodisalarning paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablarini o'rganishda ma'naviy, madaniy omillariga ko'proq ahamiyat berishni talab qiladi. Sivilizatsiyaning rivojlanish darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar davlat huquq tartibotini ta'minlash va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solib turish uchun doim kerak. Formatsion konsepsiyaga binoan davlat sinflar paydo bo'lishi bilan birga paydo bo'ladi. Formatsion yondashuv sinflar, tabaqalar o'rtasida ziddiyatni kuchaytiradi, ularni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi. Hozirgi zamon ilmiy adabiyotida formatsion yondashuv asta-sekin o'z o'rini sivilizatsion yondashuvga bo'shatib bermoqda, chunki bu yondashuv ilmiy tahlil qilish imkoniyatini beradi. Siyosiy ta'limotlar tarixini o'rganishda ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlarni ham, ma'naviy, madaniy omillarni xam hisobga olish zarur, eng muhimi bu omillarning bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'yamsligidan iborat. Ular bir-birini to'ldirib, boyitib turishi kerak.

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini o'rganishda tarixiy yondashish tamoyili alohida o'rin egallaydi. Tarixiy yondashish ta'moyili o'rganilayotgan ta'limotlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi yo'nalishini mumkin qadar har tomonlama tahlil qilishni, uni baholashda voqea va hodisalarni tanqidiy o'rganish bilan cheklanib qolmasdan, o'sha davr kishilarining ruhiyatini, an'analarni, ular borliqni qanday idrok qilishlarini o'rganishni talab qiladi.

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini o'rganishda xronologik va muammoviy yondashish uslubi ham qo'llaniladi. Xronologik uslub mutafakkirning hayoti va ijodi faoliyati, yaratgan ta'limotining mohiyati, siyosiy va huquqiy fikrning qanday oqim va yo'nalishlariga mansubligini yoritishni talab qiladi.

Muammoviy uslub ta'limotning nazariy mazmuni zaminida qanday falsafiy tamoyillar yotganligini, ta'limot muallifi uchun qanday g'oyalar yetakchi bo'lganligini ifodalaydi. Bu uslub vorislik va yangilik kabi nazariy muammolarni aniqlash va tahlil qilishni talab qiladi. Buning sababi shundaki har bir tarixiy davr, mamlakat o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lishi bilan birga umumiylik, takrorlanish belgilariga ham egadir.

Xronologik, muammoviy uslublar bir-biri bilan uzviy bog'liq. Buni hisobga olish turli ta'limotlardagi umumiylik va alohidalik, takrorlanmas va takrorlanuvchi hodisalarni chuqurroq anglash, aniqroq ajratish imkoniyatini beradi.

Siyosiy ta'limotlar tarixini yoritishda qiyosiy tarixiy tadqiq qilish uslubi ham ishlatiladi. Bu uslub ta'limotlarga xos umumiy va xususiy belgilarni chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Ta'limotga baho berishda mutafakkirning dunyoqarashiga, uning o'z zamoni, ijtimoiy-siyosiy tuzumiga bo'lgan munosabati, g'oyaviy siyosiy xayrixohligi kabi subyektiv xususiyatlarga ham ahamiyat berish zarur.

Ajdodlarimizning davlatchilik g'oyalarini o'rganish, ijtimoiy-siyosiy fikrga xos xususiyatlarini bilish zaruriyati tobora oshib bermoqda. O'tmish mutafakkirlarini adolatli jamiyat va davlat qurilishi va boshqarish ta'moyillari haqidagi ta'limotlari bizni o'ylantirgan savollarga javob topishda, ibratli ishlardan saboq olishga ko'maklashadi. Ularning barchasi odamlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilashga va takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy idealni izlash, adolat va tenglik prinsiplariga asoslangan jamiyatni qurish g'oyalarini targ'ib qildilar. O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy fikriga xos

xususiyatlardan biri shundan iboratki, uning namoyondalari davlat, xokimiyat, davlat rahbari, adolat masalalarini siyosiy axloq, diniy siyosiy madaniyatga tayangan holda hal qilishga harakat qildilar. O'rta Osiyo xalqlarining ilg'or mutafakkirlarining siyosiy qarashlarida odil hukmdor g'oyasi markaziy o'rin egallaydi. Ular davlat tepasida turgan xukmdor adolatli, xulq-atvori pok, fuqarolarga rahm-shavqatli, g'amxo'r bo'lsa davlat qudratli, jamiyat faravon bo'ladi deb tushundilar. Shundan kelib chiqqan holda ular insonni ma'naviy kamolotga erishishga chaqirdilar va shu orqali adolatsizlik, xulqiy buzukliklarni bartaraf qilish mumkin deb hisobladilar.

O'zbekistonning ijtimoiy va siyosiy fikriga xos xususiyatlardan yana biri shundaki, unda axloq masalalari yetakchi o'rin egallaydi. Uning namoyondalari ezgulik, yaxshilikni bilishga intildilar, axloqiy qonun va tamoyillarga amal qilish insonning oliy ma'naviy burchi deb bildilar. O'zbekiston siyosiy fikrda mavjud siyosiy voqelikdagi muammolarning yechimini ma'naviyat va ma'rifatdan qilarishga katta e'tibor beriladi. Davlatni boshqaruvchi xukumdorning o'zi ham, uning atrofidagi mansabdorlar ham bilimli, adolatparvar kishilar bo'lishi zarur degan fikr izchillik bilan uqtiriladi.

Siyosiy ta'limotlar tarixi fanda qo'llaniladigan umumilmiy metodlar bilan bir qatorda o'zining, faqat unga xos bo'lgan tadqiqot usullariga ham ega. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: - xronologik; - muammoli-nazariy; - portret; - mamlakatshunoslik.

Tadqiqotning kontekstual metodini alohida ko'rsatish mumkin. Kengroq nuqtayi nazardan, allaqachon kontekst doirasidan chiqib, deyarli barcha fanlarda qo'llaniladigan tizimli yondashuvga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Siyosiy g'oyalarni o'rganishga qadriyatli (prakseologik) yondashuv ham o'ziga xos usul hisoblanadi [7].

Qadriyatli (prakseologik) metod yondashuv deb nomlandi. Buning uchun barcha asoslar bor. Xronologik, muammoli-nazariy, portret va mamlakatshunoslik metodlari haqida ham shunday deysish mumkin [8].

Xronologik metod ma'lum asoslarga ko'ra siyosiy ta'limotlarni davrlashtirishni nazarda tutadi. Portret metodi siyosat, huquq va davlat to'g'risidagi individual, faqat muayyan mutafakkiriga xos bo'lgan qarashlarni o'rganishga asoslanadi. Umumiy metodlar to'rtta: materialistik va idealistik; metafizik va dialektik metodlardir. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixidagi metodlar, birinchi navbatda, g'oyalarning ilmiy asoslanganligini emas, balki ularning mazmunini tushuntirishga qaratilgan [8]. Materialistik metod jamiyat tarixiy taraqqiyotining qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, uning evolyutsiyasida moddiy ishlab chiqarishning belgilovchi roliga asoslanadi.

Idealistik metod, - deb ta'kidlaydi V. V. Lazarev, - har qanday g'oyalar va ta'limotlarning manbaini kishilar hayotining moddiy sharoitlaridan tashqarida topishga qaratilgan. Shu bilan birga, subyektiv idealizm bu manbalarni inson ongida yoki ong ostida ko'radi, obyektiv idealizm esa ularni obyektiv ravishda (inson tug'ilishidan oldin ham) mavjud deb hisoblaydi va ko'pincha oliy ilohiy kuchlarga murojaat qiladi [7].

Siyosiy qarashlar va ta'limotlar tarixi shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari nuqtai nazaridan quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganiladi:

- Qadimga Sharqdagi siyosiy qarashlar va ta'limotlar (Misr, Mesopotamiya, Xitoy, Hindiston) – bu makon va zamonda ta'limotlar mustaqil bilim sohasi bo'lmay mifologik shaklga ega bo'lgan, davlat va hokimiyatning ilohiy kelib chiqishi haqidagi qarashlar ustuvor bo'lgan.

- Qadimgi Yunoniston va Rimdagi siyosiy qarashlar hamda ta'limotlar – bu davrda siyosiy ta'limotlarning mifologik qarashlardan nisbatan mustaqil falsafiy yo'nalishga

aylanib borishi, davlat, uning shakllari va ideal boshqaruv shakli tug'risidagi fikrlar rivojlangan.

- O'rta asrlardagi siyosiy ta'limotlar - asosan din arboblari tomonidan rivojlantirilgan. Siyosatda davlat va dinning o'zaro, siyosiy hokimiyatning teologik nazariyasi rivojlangan.

- Uyg'onish va ma'rifatparvarlik davridagi siyosiy ta'limotlarda gumanistik qarashlarning ustuvor bo'la boshlashi, ularning teologik qarashlardan xoli bo'lishi kuzatiladi. Inson huquqlari va erkinliklari, davlat va qonun, jamiyatda demokratik tamoyillar ustuvorligi masalalarining tahlil qilina boshlandi.

- Yangi davr va hozirgi zamondagi siyosiy-mafkuraviy ta'limotlar - liberal siyosiy mafkuraning shakllanishi, hokimiyat bo'linishi tamoyilining asoslanishi, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati, demokratiya, mafkuraviy plyuralizm, inson va fuqaro huquqlari konsepsiyalarining shakllanishi va rivojlanishi bilan bog'liq.

Bo'lg'usi huquqshunos mutaxassislar uchun Feruza Muxitdinova tomonidan tayyorlangan "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi" darsligida siyosiy-huquqiy ta'limotlar uchta davrga bo'lib o'rganiladi.

Umuman insoniyat tarixi singari siyosiy-huquqiy ta'limotlarning rivojlanishini ham quyidagi asosiy davrlarga bo'lgan qolda o'rganish mumkin.

Ulardan birinchisi - qadimgi dunyoning ilk siyosiy-huquqiy tasavvurlari shakllangan davr. Bunda inson tafakkuri, jumladan, siyosiy-huquqiy qarashlari ertak va diniy afsonalar shaklida rivojlangan. Afsonaviy tafakkur tarix rivojini xudolarga bog'liq deb bilgan. Insoniyat tarixi, dunyo tartiblari, yerdagi hokimiyat va mavjud qonunlar xudolar madadi va ishtirokida yaratilgan degan nazariya paydo bo'lgan.

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar rivojlanishining ikkinchi davri (o'rta asrlar)da ilmiy ta'limotlar, tarixiy, falsafiy va siyosiy-huquqiy qarashlar diniy mafkura ta'sirida rivojlangan, shuning uchun ham bu davrda ijod qilgan ko'plab mutafakkirlar asarlarida ijtimoiy taraqqiyot jarayonlari idealistik nuqtai nazardan asoslangan

Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixining yangi davri ko'plab faylasuflar va mutafakkirlar tomonidan xudo tarix va taraqqiyot, jamiyat tartib va qonunlarining ijodkori degan aqidadan voz kechilishi bilan boshlangan. Dunyodagi voqea-hodisalarni, ijtimoiy munosabatlarni moddiy dunyoning o'zidan kelib chiqib o'rganila boshlandi [9].

Rus mualliflari tomonidan tayyorlangan "Siyosiy-huquqiy ta'limotlar tarixi" darsligida "Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixining tipologiyasi jamiyatning davlat paydo bo'lganidan keyingi asosiy davrlariga mos keladigan uchta asosiy davrni o'z ichiga oladi:

- 1) tabaqa-kastachilik jamiyatining siyosiy-huquqiy mafkurasi;
- 2) fuqarolik jamiyatiga o'tish davrining siyosiy va huquqiy ta'limotlari;
- 3) fuqarolik jamiyatining siyosiy-huquqiy mafkurasi" [10] ko'rinishida davrlashtiriladi. Ushbu darslikda siyosiy-huquqiy ta'limotlarning uchta asosiy tarkibiy qismi ko'rsatiladi:

- 1) falsafiy, mantiqiy-nazariy yoki boshqa (masalan, diniy) asos (ta'limotning metodologik o'zagi);

- 2) davlat va huquqning mohiyati, rivojlanish qonuniyatlari, ijtimoiy maqsadi va davlat tuzilishi tamoyillari, huquqning asosiy tamoyillari, uning davlat, shaxs, jamiyat va boshqalar bilan munosabati haqidagi savollarning mazmunli yechimlari, konseptual va kategoriyaviy apparat shaklida ifodalangan;

- 3) dasturiy qarashlar - mavjud davlat va huquqqa, siyosiy maqsad va vazifalarni baholash ko'rinishida.

Xulosa va takliflar. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini o'rganish juda muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, shuni ta'kidlash kerakki, davlatlarning paydo bo'lish tarixini bilmasdan turib chuqur tasavvurga ega bo'lish mumkin emas.

Ikkinchidan, bugungi kunni yaxshi va to'g'ri tasavvur qilish uchun ijtimoiy taraqqiyotning oldingi bosqichlarini bilish zarurligini taqozo qiladi. Shuning uchun ham o'tmishga murojaat qilamiz, undan saboq olish bilan birga bugungi ayrim muammolarning yechimini topish mmkoniyatiga ham ega bo'lamiz.

Darhaqiqat, o'zlikning anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Tarix xotirasi insonni istiqbolga da'vat etadi, milliy istiqbol mafkurasini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat

qiladi. Tabiiyki bunda Markaziy Osiyo xalqlarining buyuk mutafakkirlarining siyosiy qarashlari munosib o'rin egallaydi. Talabalarning jahon siyosiy ta'limotlari tarixini o'rganishi o'ta muhim, xotirasidan bir umr o'chmaydigan ahamiyatga ega bo'ladi. Bu fan talabalarga erkinlik, adolatlilik, qonun va qonuniylik to'g'risida, odil ijtimoiy davlat tuzumi haqida, inson va hokimiyat o'zaro munosabatlarining tamoyillari va shakllari xususidagi tasavvurlarni chuqurlashtirishga imkon beradi.

ADABIYOTLAR

1. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (араб сўзлари ва улар билан ҳосилалар). –Т., “Университет” нашриёти, 2003.
2. Халипов В.Ф., Халипова Е.В. Власть. Политика. Государственная служба. Словарь. - М.: Луч, 1996.
3. Siyosatshunoslik: / Mualliflar jamoasi U.X. Bo'taev rahbarligida tayyoslangan darslik.T., Info Capital Books, 2024. -B.42. URL: <https://qr.me-qr.com/mobile/pdf/20307218> (murojaat sanasi: 08.05.2025)
4. Мухитдинова Ф.А. Сиёсий ва ҳукукий таълимотлар тарихи. Дарслик. –Т., ТДЮИ нашриёти, 2011.
5. Фалсафа: энциклопедик луғат/ЎзР ФА, И. Муминов номидаги фалсафа ва ҳуқуқ институти. -Т., “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. 2010.
6. Маънавият асосий тушунчалар изохли луғати. - Т.: Фафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2010.
7. История политических и правовых учений. Учебник / Отв. ред.: Лазарев В.В.. - 2-е изд., испр. и доп. - М., 2008.
8. Корнев А. В. Базовые методы истории политических и правовых учений и возможная трансформация объекта юридической науки // Вестник Университета имени О. Е. Кутафина. 2023. №4 (104). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bazovye-metody-istorii-politicheskikh-i-pravovyh-ucheniy-ivozmozhnaya-transformatsiya-obekta-yuridicheskoy-nauki> (Murojaat sanasi: 28.04.2025)
9. Мухитдинова Ф.А. Сиёсий ва ҳукукий таълимотлар тарихи. Дарслик. –Т., ТДЮИ нашриёти, 2011.
10. История политических и правовых учений. Учебник для вузов / Под редакцией докт. юрид. наук, профессора О. Э. Лейста. М.: Издательство “Зерцало”, 2006. — С.4.
11. Ergashev I., Norboyev A., Abdullayev B., Xudaynazarov A. Jahon siyosiy mafkuraviy ta'limotlar tarixi. Uslubiy qo'llanma. -Т., 2023.